

SUN'iy INTELLEKT VA YO'QOLIB BORAYOTGAN INSON ARBITR

Ergashov Ziyobek Doniyor o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti “Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik”

fakulteti 3-kurs talabasi

Ziyobek786@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada, bugungi kunda raqamli texnologiyalrning jadal rivojlanishi natijasi o‘larоq, sun’iy intellektning ko‘pgina sohalar qatorida, xalqaro arbitrajga ta’siri, xalqaro arbitrajlarda arbitrlarning o‘rniga sun’iy intellect xizmatidan foydalanishning ijobiy jihatlari qatorida, uning natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlar ham tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *xalqaro arbitraj, xalqaro huquq, arbitr, sun’iy intellect, komyuter texnologiyalari, ChatGPT, sun’iy ong.*

Yigirma birinchi asrga kelib, insoniyat butun o‘tgan davrlarga qaraganda ilm-fanning deyarli barcha sohasida ayniqsa, raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq yangiliklar va ixtirolarda mislsiz yutuqlarga erishdi va bu ayni damda ham, bir soniyaga bo‘lsa-da to‘xtamagan va davom etayotgan ulkan bir jarayon hisoblanadi. Deyarli hech bir soha qolmadiki, ilmning, inson tafakkuri mahsulining ta’siri kirib bormagan va uning natijasida aql bovar qilmas darajada samaradorlik va qulaylikka erishmagan, azaldan bashariyatning dolzarb va insonlar hayotida muhim o‘rin tutgan asosiy masalalari ham, shular jumlasidandir. Birgina, o‘tgan asrning so‘nggi yillarida insonlar tomonidan yaratilgan, ko‘p muddat davomida takomillashtirilib, rivojlantirib borilgan sun’iy intellect(AI – Aritificial Intellegence) juda keng ko‘lamda, insonlar hayotining deyarli barcha jabhalariga sezilarli darajada o‘z ta’sirini ko‘rsatib ulgurdi va hozirda tolibi ilmlar orasida mazkur fikrni inkor qiladigan insonni topish mushkul. Mazkur sohada professional tarzda ilmiy faoliyat va izlanish olib borayotgan mutaxasis

va olimlar orasida, shuningdek uning doimiy foydalanuvchilari sanalmaydiganlar o‘rtasida ham, sun’iy intellekt bilan bog‘liq bahslar, turli yo‘nalishdagi savollar juda ko‘plab topiladi. Hozirda insonlar hozirda egallab turgan kasblarga kelgusida sun’iy intellekning tasiri so‘nggi yillardagi bu boradagi eng actual savollardan biri, albatta. Mazkur savol atrofida aylanayotgan tahlilchilar o‘ziga xos yo‘sinda ikkiga bo‘linishgan. Kimlardir inson tafakkuri hosilasi sanalmish bu ixtiro, uning o‘ziga qarshi yaratilgan, o‘zi anglab yetmagan va oqibatini nazorat qila olmaydigan yangi xavf sifatida qarashadi. Misol uchun, „Tesla” „SpaceX” „Twitter” va „Neuralink” va shunga o‘xshash bir qancha jahonga mashhur gigant kompaniyalar egasi, milliarder Elon Mask o‘zining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali, tobora yuksalib rivojlanib borayotgan mazkur dasturga, ushbu dasturni takomillashtirib, undan bashariyat manfaatlari yo‘lida foydalanib kelayotgan yirik kompaniya va tadqiqotchilarga, o‘zining bu boradagi o‘ziga xos talqini va pozitsiyasini bildirib, uning kelgusida odamzot boshiga keltirishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlari xsusida o‘z fikrlari bildirib o‘tdi. Twitter egasi, sun’iy intellekt laboratoriylarini eng ilg‘or tizimlarni ishlab chiqishni to‘xtatib turishga chaqirib, sun’iy intellekt vositalari „jamiyat va insoniyat uchun jiddiy xavf” ekanligi haqida ogohlantirdi. Bundan tashqari, dunyoning eng yirik kompaniyalari hamda bir qancha siyosatchilar mazkur taraqqiyot mahsuli, uni yaratgan inson uchun shuningdek, u shu kungacha erishgan narsalar uchun jiddiy xavf tug‘dirishi to‘g‘risida o‘z fikrlarini bildirishmoqda. Uning ortidan yaxshigina manfaatdor yoki o‘sish, rivojlanish hamda texnologiya taraqqiyoti faqatgina ijobiy natijalar sari yetaklashiga ishonuvchilar guruhi esa, bu borada qilinayotgan izlanishlar va yangiliklar bir soniyaga bo‘lsa-da to‘xtashini aslo istashmaydilar.

Sun’iy intellektning takomillashishi, inson tomonidan bajariladigan ko‘plab vazifa va funksiyalarning o‘z o‘rnini asta-sekinlik bilan unga bo‘shata boshlashin ortidan juda ko‘plab tadqiqotchilar va izlanuvchilar ilmiy tadqiqot mavzularida, maqolalarida o‘z o‘rnida, jahonga mashhur ayrim nashrlar o‘z tarmoq sahifalari orqali uning kelgusida odamlar egallab turgan ayrim turdagи kasblarning o‘rnini butkul yoki qisman egallashi mumkinligi g‘oyasini ilgari surib keldilar. Masalan, “Buisness

Insider” nashri tomonidan 2023 yil aprel oyi boshlarida ijtimoiy tarmoq sahifalariga yuklangan, sun’iy intellektga o‘z o‘rnini kelgusida bo‘shatib berishi mumkin bo‘lgan top 10 ta kasblar¹ nomi keltirib o‘tgan edi. Ushbu ro‘yxatda, huquqshunos yoki sudyaning yordamchisi lavozimi yoxud sud maslahatchisi uchinchi o‘rinda ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Yana bir yaqqol misol, “PC Magazine” onlayn sahifasi 2022 yilda bergen ma’lumotlarga ko‘ra² ham, ushbu kasblar top o‘ntalikning 3-pog‘onasini egallagan. Ajablanarli tuyulsada, bu fikrga sun’iy intellektning o‘zi ham qo‘shiladi. Xo‘sh, agar huquqshunoslik sohasidagi ma’lum bir kasblar o‘mini yaqin kelajakda bu dastur egallah ehtimoli yuqori bo‘lsa, bu nimaning hisobiga bo‘ladi? Inson tafakkuri kerak bo‘lgan ishlarni ado qilish jarayonida sun’iy intellekt, uning o‘rnini to‘liq qoplay oladimi? Albatta, insonlar kelajakda nimalar bo‘lishini oldindan aniq aytgani bilan, bularning hammasi shu yo‘sinda ketadi va barchasi sodir bo‘ladi degani emas. Barcha fikr va mulohazalar ma’lum bir faktik omillarga tayangan holda bildiriladi. Lekin, kutilmagan sabab va omillar tufayli bular amalga oshmay qolishi ham tabiiy. Masalan, 2013 yilda Oksford professorlari Frey va Osborn tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra,³ keyingi 20 yil ichida AQSH ish o‘rinlarining 47 foizi aynan sun’iy intellect tomonidan yo‘q qilinishi mumkinligi farazi ham o‘zini oqlaganicha yo‘q. Buning eng asosiy sabablaridan biri, kompyuter-texnologiyalari va dasturlash yuqori darajada rivojlangan davlat uchun kelgusida ham bu boradagi rivojlanish tendensiyalari juda ham yuqori bo‘lishi mumkinligi va shunga o‘xhash farazlar bilan “47” ning juda ham katta raqam sifatida qaramasdan aytilganligi sanaladi. Shunday bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda dasturning eng keng tarqalgan prototiplaridan biri, hattoki telegram ijtimoiy tarmog‘ida ChatGPT Bot sifatida oddiy insonlardan tomonidan ham ma’lum bir maqsadlarda yoinki shunchaki ko‘ngil yozish uchun virtual muloqotchi sifatida foydalanib kelinmoqda. Uning ishslash mexanizmini judda soda va tushunarli qilib aytadigan bo‘lsak, qachonki unga biror bir mavzuga oid savol beradigan

¹ <https://www.businessinsider.com/chatgpt-jobs-at-risk-replacement-artificial-intelligence-ai-labor-trends-2023-02#legal-industry-jobs-paralegals-legal-assistants-3>

² <https://www.pcmag.com/news/10-jobs-that-could-disappear-any-day-now-thanks-to-ai>

³ <https://www.oxfordmartin.ox.ac.uk/publications/the-future-of-employment/>

bo‘lsangiz internetda bor va o‘zining qidiruv doirasida bo‘lgan barcha ma’lumotlar orasidan ularni analiz qilgan holda sizga javob ko‘rinishida taqdim etadi. Xa, biz masalaning asosiy nuqtasiga juda yaqin keldik! Biz uning qanday qilib savolga javob berishi mumkinligi haqida so‘z yuritdik. Biz unga huquq yo‘nalishiga oid savol yoki biror muammoli vaziyat haqida aytadigan bo‘lsak-chi? Masalan, O‘zbekiston Respublikasining jinoyat huquqiga oid bo‘lgan biror bir masala. Agar, unga berilayotgan savol haqida uning o‘z qidiruv bazasida yetarlicha axborot bo‘lsagina, u kerakli ma’lunotni topib uni tahlikl qilgan holga sizga taqdim etadi. Bordi-yu bo‘lmasa, bu holda u ishlamasligi mumkin.

Xalqaro arbitrajda ko‘rilayotgan nizolar odatda, faqatgina bitta davlatning qonunchiligi yoxud Xalqaro arbitraj huquqida qo‘llaniladigan biror bir normaning o‘zi bilangina hal qilish mumkin bo‘ladigan holatlar deyarli uchramaydi. Ustiga ustak, xalqaro arbitrajlarda ishni ko‘rish nihoyatda nozik bo‘lganligi bois, har bir arbitr o‘ziga yuklatilgan vazifani aniq, faktik, asoslangan, xolisona bajarishi uchun, juda ko‘plab huquq normalariga murojaat qilishi lozim sanaladi. Misol uchun, xalqaro arbitrajda mahsulot yetkazib berish bilan bog‘liq nizo yuzasidan ish ko‘rilmogda. Murojaat qiluvchi taraflar mutlaqo boshqa-boshqa kontinental qit’adan bo‘lsa, odatda ikki tomon o‘rtasida tuzilgan shartnomada kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni qaysi huquq normalari asosida, qayerda hal qilishni o‘zaro kelishib olishadilar. Bunda holatda shartnomada nazarda tutilgan bo‘lsa, milliy qonunchilikda ko‘rsatilgan normalarga ham murojaat qilish lozim bo‘ladi. Bu esa, sun’iy intellectni arbitr yoki unga yordamchi maslahatchi sifatida bir dastur qilib yaratish jarayonida uning tizimiga dunyoning juda ko‘plab mamlakatlaridagi, turli huquq tizimlariga oid normalarni ham kiritishni talab qiladi. Chunki, ko‘pgina ishlarda xalqaro normalarning o‘zi bilangina nizolarni hal qilishning deyarli iloji yo‘q.

Bir qarashda sun’iy intellect kerakli hujjatlarni(normalarning kerakli qismlarini) topishda va uni tahlil qilishda, arbitrlarga kata ko‘mak ham beradi. Bu esa o‘z o‘rnida, oylab qolaversa, yillab cho‘ziladigan hisobsiz axborotlarni, dalillarni, qonun hujjatlari va xalqaro huquqning normalarini bir-biri bilan solishtirib, analiz qilib o‘rganib

chiqish uchun ketadigan vaqtini tejaydi. Dasturga kerakli ma'lumotlar va muammoli vaziyat xsusida axborot kiritilishi bilan bir necha daqiqa ichida sizga kerakli tahlilni bera olishi mumkin.

Shuningdek, sun'iy intellect orqali xalqaro arbitrajda ishni ko'rish jarayonida qatnashadigan sudyalarining(arbitrlarning) soni qisqarishi mumkinligi moddiy xarajatlarni ham bir qadar kamaytirishi mumkin. Chunki, xalqaro arbitrajda ishni ko'rish uchun ancha mablag' talab etiladi. Hattoki, advokatlarga to'lanadigan xizmat haqi ham birmuncha yuqori turadi. AI larni qo'llash bu borada ham yetarlicha samarali va kamchiqim deyish mumkin.¹

Tanganing har vaqt ikkinchi tomoni ham bo'lganidek, sun'iy intellektning bu boradagi kamchiliklari ham yo'q emas. Xalqaro huquqda nizolarni hal qilish jarayonida turli davlatlarning milliy qonunchiligiga yoxud umume'tirof e'tilgan hujjatlarga murojaat qilish lozim bo'ladi. Bu esa, bir tildagi hujjat yoki shartnomalarni, ikkinchi tilga tarjima qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Tarjima qilish jarayoni ham o'ta murakkab, yuksak tajribali va salohiyatga ega lingvistlarni jalg qilishni talab etadi. Sababi, ba'zi so'zlarning ikkinchi tilda xuddi o'ziniki kabi muqobil tarjimasi mavjud emas yoxud shunga o'xshash tarjima qilish jarayonidagi muammolar shular jumlasidan sanaladi. Bu masalada sun'iy intellect hali mukammal emas. Tarjima qilish u tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklar ishning natijasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Qolaversa, sun'iy intellect yetarlicha takomillashgan taqdirda ham, u baribir bir hissiz dastur ekanligini, har qanday dastur ham bir kunmas bir kun pand berishi, ko'rayotgan ishiga oid noto'g'ri xulosalar berishi mumkinligini unutmasligimiz lozim.² Bu juda ham yomon rad etib bo'lmash kamchilik. Shuningdek, raqamli texnologiyalar shu darajada rivojlanib ulgurdiki, har qanday yangi dasturiy ta'minot yoki tizim, boshqa bir insonlar tomonidan xakkerlik hujumlariga uchrashi mumkinligi xavfi ham yo'q emas.

¹ <https://hbr.org/2019/09/how-artificial-intelligence-is-transforming-the-legal-profession>

² <https://www.natlawreview.com/article/artificial-intelligence-law-firms-who-s-holding-transparency-and-accountability-cards>

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, inson omilini alishtirib bo‘lmaydigan ba’zi kasblarni hozirda mazkur inson tafakkuri mahsulining xizmati bilan almashtirish bir qancha muammolarga yo‘lak bo‘lishi mumkinligi haqida ham mulohaza qilishimiz lozim. Agar, taraqqiyot yutuqlaridan unumli foydalanishni istasak, ular keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni ham hisobga olishimiz, kuchli nazorat o‘rnatishimiz zarur.

Faydalaniłgan adabiyaotlar ro‘yxati:

1. <https://www.businessinsider.com/chatgpt-jobs-at-risk-replacement-artificial-intelligence-ai-labor-trends-2023-02#legal-industry-jobs-paralegals-legal-assistants-3>
2. <https://www.pcmag.com/news/10-jobs-that-could-disappear-any-day-now-thanks-to-ai>
3. <https://www.oxfordmartin.ox.ac.uk/publications/the-future-of-employment/>
4. <https://hbr.org/2019/09/how-artificial-intelligence-is-transforming-the-legal-profession>
5. <https://www.natlawreview.com/article/artificial-intelligence-law-firms-who-solving-transparency-and-accountability-cards>